



O'ZBEKISTON "BIZNESNI RIVOJLANTIRISH BANK" LARIDA BIZNESNI
RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISHNING TASHKILY ASOSLARI VA
AHAMIYATI.

Naimov Izzat Quvvatovich

O'zbekiston respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 martdagi «Qishloq qurilish bank» aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-1083-sonli qarori asosida «G'allabank» negizida

«Qishloq qurilish bank» tashkil etilib, respublika miqyosida uy-joy qurilishi, kommunal, ijtimoiy soha va qishloq aholi punktlarini obodonlashtirish borasidagi ehtiyojlarni amalga oshirishda aholi hamda yuridik shaxslarga kreditlar berish va bank xizmatlari ko'rsatish, tasdiqlangan namunaviy loyihalar asosida uy-joylar va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini qurish hamda ta'mirlashni amalga oshiradigan ixtisoslashtirilgan pudrat tashkilotlariga keng ko'lamlı kredit va lizing xizmatlari, qishloqda ob'ektlar qurishning industrial va yig'ma texnologiyalarini joriy etadigan barcha mulkchilik shaklidagi korxonalariga kredit ajratish va kompleks tarzda bank xizmatlarini ko'rsatish kabi masalalar bankning ustuvor vazifalari sifatida belgilandi.

Joriy yilning avgust oyida Shavkat Mirziyoyevning tadbirkorlar bilan o'tgan ochiq muloqotida "Qishloq qurilish banki" "Biznesni rivojlantirish banki"ga aylantirilishi va tadbirkorlarga ushbu bankga ulushdor bo'lib kirish huquqi berilishi ma'lum qilingandi. Sentabr oyiga kelib, ochiq muloqotda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan davlat rahbari qarori qabul qilindi hamda unda mazkur bankka OTB va boshqa xalqaro moliya institutlari hisobidan bosqichma-bosqich \$500 mln miqdorida resurs ajratilishi belgilandi. Bundan tashqari, mazkur hujjat bilan Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha kengash tarkibi yangilandi hamda kengash a'zolari soni 22tadan 30tagacha oshirilib, unga "Biznesni rivojlantirish banki" raisi ham kiritildi.

Undan keyin, kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlashga qaratilgan prezident qarori bilan, "Biznesni rivojlantirish banki"ning ustav kapitalini joriy yilning 1-oktabridan 2024-yilning yakunigacha bosqichma-bosqich 3 trln so'mga yetkazish topshirildi.

"Qishloq qurilish bank"ka ajratilgan umumiy qiymati 544 mlrd so'm bo'lgan kredit liniyalari mablag'lari mazkur bankka subordinar qarz sifatida qayta rasmiylashtiriladi.

Bank huzurida har bir hududda jami 14 ta kichik biznes markazlari tashkil etilib, loyihalarning 10%iga tadbirkor investitsiya kiritisa, 45%iga mazkur bank, qolgan 45%i uchun davlat ko'magida resurs yo'naltirilishi belgilandi.

Kreditlar tadbirkorlarga 5-7 yil muddatga imtiyozli shartlar asosida beriladi. Ushbu mablag'larning \$200 mln.ni bo'yicha kredit liniyalari 1-oktabrdan ochilishi belgilangan.

O'z biznesini yo'lga qo'ya olgan, "kredit va soliq tarixi" toza bo'lgan tadbirkorlarga faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish uchun kredit olishda garov talabi 50%ga kamaytiriladi.



Joriy yilning 28-sentabr kuni “Qishloq qurilish bank” aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida bank nomi “Biznesni rivojlantirish banki”ga o‘zgartirildi va bank ustavi hamda bankning yangi tarkibiy tuzilmasi tasdiqlandi.

30-sentabrda esa Markaziy bank boshqaruvining qaroriga asosan bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya almashtirildi.

Jami \$600 mln miqdoridagi yevrobondlarni xalqaro kapital bozorlarida muomalaga chiqarish rejalashtirilmoqda.

Aholini kichik va o‘rta biznesga keng jalb qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida prezident qarori qabul qilindi.

Hujjat bilan, 2024-2026 yillarda “Biznesni rivojlantirish banki” va “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” faoliyatining asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari belgilanmoqda.

Xususan, “Biznesni rivojlantirish banki”ning kichik tadbirkorlarga ajratiladigan kreditlar qoldig‘ini 1,7 baravarga oshirish orqali kredit portfelidagi ulushi 28%dan 43%ga yetkaziladi.

Kichik biznes loyihalarini moliyalashtirishga xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlaridan \$800 mIngacha resurslar jalb qilinadi. 150 mingta kichik tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yib, kengaytiriladi.

Bank tomonidan \$300 mln miqdorida obligatsiya (yevrobond)larni xalqaro kapital bozorlarida muomalaga chiqarish, shuningdek, xuddi shuncha miqdordagi yevrobondlarni “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” tomonidan ham chiqarish belgilanmoqda.

“Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” kichik va o‘rta tadbirkorlarga ko‘rsatiladigan moliyaviy xizmatlar hajmini 8 trln. so‘mdan 14 trln. so‘mga yetkazadi.

150 ta o‘rta biznes korxonasi ulush kiritish va xizmatlar ipotekasi asosida 300ta loyihani tadbirkorlarga sotish hamda o‘rta biznes sonini 2,5 baravarga oshirish belgilanmoqda.

Aholini kichik va o‘rta biznesga keng jalb qilish bo‘yicha hududiy komissiyalar tashkil etilib, hududlar va davlat dasturlari yo‘nalishlari kesimida 2024-yilda 2 mln aholi biznesga jalb qilinadi.

Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi tomonidan loyihalarni moliyalashtirish uchun “Biznesni rivojlantirish banki”ga jami \$300 mln miqdorida mablag‘lar ajratiladi.

Shundan, \$75 mlni bank ustav kapitalini oshirishga yo‘naltirilib, qolgan \$225 mlni subordinar qarz sifatida 15 yil muddatga, 5 yillik imtiyozli davr bilan yillik 5% stavkada beriladi.

Avvalroq Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” sifatida qayta tashkil etildi.

“Biznesni rivojlantirish banki”da biznesni rivojlantirish va boshqarishning tashkiliy asoslaridan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- "Kichik biznesni rivojlantirish jamg‘armasi" MCHJ va "Kichik biznesga ko‘maklashish markazi" MCHJlarning faoliyatini tashkil qilish, muvofiqlashtirish va ularning xarajatlarini qoplash choralari ko‘rish;

- kichik tadbirkorlik subyektlarini o‘rganishdan boshlab moliyalashtirish va ishlab chiqarishni barqaror yo‘lga qo‘ygunga qadar bo‘lgan jarayonda moddiy va texnik qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirish;



- ijobiy kredit tarixiga ega kichik tadbirkorlik subyektlariga soddalashtirilgan kreditlash tizimini joriy qilish;
- "biznes ipotekasi" amaliyotini joriy qilish va hududlarning master-rejasini ishlab chiqib, kommunikatsiya va infratuzilmagaulangan obyektlarni ipotekaga berish;
- biznes reja, moliyaviy hisobotlar, eksport-import amaliyotlari, mulklarni baholash, sug'urtalash va notarial xizmatlardan foydalanish hamda hujjatlarni rasmiylashtirishda tadbirkorlarga amaliy yordam berish va bepul yuridik xizmatlar tashkil qilish;
- tadbirkorlarga bozor konyukturasi va biznesni tashkil qilish masalalarida uzluksiz ishlovchi bank va konsalting xizmatlarini ko'rsatuvchi "Biznes 24/7" - "yagona darcha" tizimini yaratish hamda faoliyatini ta'minlash;
- universal tijorat banki sifatida yuridik va jismoniy shaxslarga qonunchilikda belgilangan tartibdagi boshqa kompleks bank xizmatlarini ko'rsatish.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimini rivojlantirish oldida turgan asosiy vazifalardan biri bu bank xizmatlari sifatini oshirish, xizmatlar ko'lamini kengaytirish va ularni rivojlangan davlatlar banklari darajasiga yetkazishdan iborat. Yurtboshimiz ta'бири bilan aytganda, bu borada zamonaviy bank xizmatlarini rivojlantirish va bank xizmatlarini ommabopligiga alohida e'tibor qaratish lozim. O'zbekiston Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi farmoni bilan qabul qilingan —2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham —bank tizimini isloh qilish, banklar depozit bazasining kapitalizatsiyasini chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini va ishonchligini mustahkamlash, istiqbolli investision loyihalar hamda kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlashtirishni yanada kengaytirish vazifasi belgilab berilgan. Darhaqiqat, tijorat banklari xizmatlar bozorining rivoji nafaqat xalq xo'jaligiga kapitalni taqsimlashga, balki aholiga axborot berish, to'lovlarni tezlashtirish va boshqa bir qancha qulaylik va imkoniyatlarni yaratib beradi. Shu asosda bizning oldimizda chakana bank xizmatlari sohasida xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish va shu tajribaning ijobiy jihatlari O'zbekiston bank tizimidagi ichki holatdan kelib chiqib joriy etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. 2018-2023-yillarda mamlakatimiz tijorat banklarining faoliyatida chakana bank xizmatlarini rivojlantirishga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada ortganini ko'rishimiz mumkin.

• Zamonaviy bank xizmatlarini rivojlantirish va ularning ommabopligini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi farmoni bilan qabul qilingan 2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida tizimini isloh qilish, banklar deposit bazasining kapitalizatsiyasini chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini va ishonchligini mustahkamlash, istiqbolli investision loyihalar hamda kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlashtirishni yanada kengaytirish vazifasi belgilab berilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992 son farmoni asosida 2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining Bank tizimini isloh qilish strategiyasi ishlab chiqildi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-2025 yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son Farmoni. – Foyqдалanish manbai: www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2021 yil 10 dekabrda 2696-3-son bilan ro'yxatdan o'tgan "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yoqotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" Nizom. – Foyqдалanish manbai: www.cbu.uz
3. Лексис В. Кредит и банки. – М., 1994 – 118 с.
4. Лаврушин О.И. Роль кредита в экономическом развитии//Банковское дело. – Москва, 2011 №2. С. 36-37.
5. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. – T.: Iqtisod-Moliya, 2017 – 242-245-b.
6. Xoldorov. Sh.O. Tijorat banklarida qo'llaniladigan kreditlash shakllari va ularni amalga oshirish tartibi (PhD). Diss. Avtorefer. – Toshkent, 2018y
7. www.cbu.uz O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti.